



INSON RUHIY HOLATINI IFODALOVCHI TURLI VERBAL VA NOVERBAL BIRLIKLAR

Sharipova Maxliyoxon G'ayratovna
FDTU 2-son akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson ruhiy holatini ifodalovchi turli verbal va noverbal birliklar haqida so'z yuritilgan. Nutqni tinglovchiga to'laonli va jonli yetkazish uchun tilda mavjud bo'lgan his-hayajon ifodalovchi so'zlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Psixolingvistika, funktsionallashtirish, paralingvistika, verbal vositalar, noverbal vositalar.

Jahon tilshunosligida global miqyosda sodir bo'layotgan integratsiyalashuv natijasida turli soha fanlarining jadallik bilan rivojlanishi, yangi kashfiyotlar natijasida ilm-fan yo'nalishlarining yanada chuqurlashib, kengayib borishi kuzatilmoqda. Ilm-fan taraqqiyotida yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar talab qilinmoqda. Buning natijasida o'tgan asrning oxirida tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganish metodologiyasiga asoslangan antropotsentrik tilshunoslikning turli yo'nalishlari shakllandi. Xususan, pragmatolingvistika, psixolingvistika, sotsiololingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, ontolingvistika kabilar o'z tadqiq obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, tahlil usullariga ega bo'lib, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan o'rganish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. XXI asr tilshunosligi inson ichki kechinmalari, his-tuyg'ularining tilda aks etish masalasini ham o'rganish zarurligini kun tartibiga qo'yimoqda.

Dunyo tilshunosligida inson ruhiy holatini ifodalovchi turli verbal va noverbal birliklar tadqiqi doimo markaziy o'rinda turgan. Nutqni tinglovchiga to'laonli va jonli yetkazish uchun tilda mavjud bo'lgan his-hayajon ifodalovchi so'zlardan foydalaniladi, natijada, voqea-hodisalarni tinglovchi ongiga yanada aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishga erishiladi. Keyingi yillarda emotsional-ekspressiv leksika, his-hayajon ifodalovchi lisoniy birliklar, so'zning konnotativ ma'nosi kabi masalalarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zotan, muloqotning jonli, ta'sirli va jozibador bo'lishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ruhiy holat ifodalovchi turli verbal va noverbal birliklar va ularning uslubiy, psixolingvistik hamda gender xususiyatlarini tilshunoslikning zamonaviy aspektlarida tadqiq etish zaruriy vazifalardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda taraqqiyotning asosi sifatida ilm-fan va ta'lim sohalarini yangi bosqichga olib chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda har qaysi jabhada mavjud dolzarb muammolarni ilm-fan yutuqlari asosida hal etish katta ahamiyatga ega. "Bugungi globallashtirish davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini,



ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratishi tabiiydir”⁶. Shunga ko‘ra, ruhiy holat ifodalovchi verbal hamda noverbal vositalarning uslubi, psixolingvistik va gender xususiyatlarini xalqimizning boy madaniyati va qadriyatlarini yorqin aks ettirgan asarlar misolida tadqiq etish milliy tilni asrash va rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tilni tadqiq qilishga qiziqish ortar ekan, turli paradigmalar tilshunoslikning bugungi kunga qadar taraqqiyotiga xizmat qildi. “XX asrning ikkinchi yarmiga tegishli bo‘lgan tilshunoslikning “paradigmal” tarixi hozirgi zamon lingvistikasining shakllanishini keltirib chiqardi. Agar tilni diaxron va sinxron ko‘lamda tadqiq etishdagi eng katta tamoyillar e‘tiborga olinsa, ko‘plab lingvistik paradigmalar, maktablar va yo‘nalishlar uchta asosiy: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik superparadigmalar aloqador bo‘lib qoladi⁷. Tilshunoslikka oid paradigmalar shakllanar ekan, turli muammolarga yechim topildi, tilning beqiyos tabiati tadqiq qilindi. Yuzaga kelgan paradigmalar esa biri ikkinchisini to‘ldirib, rivojlantirib bordi. Albatta, oldingi paradigma taraqqiyotida qo‘lga kiritilgan yutuqlar o‘zidan keyingi paradigmaning taraqqiyoti uchun xizmat qildi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo‘ldi”⁸. Tilni tadqiq qilishga pragmatik va kognitiv jihatdan yondashish, tilni foydalanuvchi subyekt bilan birgalikda o‘rganish ehtiyoji asnosida vujudga kelgan yangi yo‘nalish va tarmoqlar antropotsentrik paradigmani vujudga keltirdi.

F.Usmanov zamonaviy tilshunoslikka xos xususiyatlar antropotsentriklik va poliparadigmallik ekanini ta’kidlaydi va bunda lisoniy shaxs xususiyatlariga tayanilishini qayd etadi⁹. Tilning turli paradigmalar nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi bu noyob hodisaga xos xususiyatlarni yanada aniqroq, batafsilroq yoritish imkoniyatini vujudga keltiradi. Poliparadigmallik natijasida bir hodisaga turli aspektlardan baho berish, turfa jihatdan yondashish imkoniyati vujudga keladi. Tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganish, tilning qurilishi, sistemaviy tuzilishini tadqiq qilish, albatta, tilshunoslikda qator muammolarning yechim topilishiga sabab bo‘ldi, aynan qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalar yutuqlari asosida tilning inson bilan chambarchas jihatlarini o‘rganish ehtiyoji mavjudligi oydinlashdi. Shu sababdan ham antropotsentrik paradigmaning muhimligini ta’kidlash

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730> (murojaat sanasi: 15.12.2024).

⁷ Махмараимова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2017. – Б.14.

⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.35.

⁹ Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Andijon, 2024. – B.15.



qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalarning yutuqlarini, afzalliklarini inkor etmaydi. Poliparadigmallik esa tilshunoslikka oid masalalarning mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Bugungi tadqiqotlarni kuzatar ekanmiz, shunday bir holatni sezmaslik mumkin emas: lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan shaxs omilini o'rganish yuqorida qayd etilgan tilshunoslik sohalari – psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Ayni vaqtda, til tizimiga antropotsentrik yondashuv ushbu sohalarning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda¹⁰. Chindan ham, tilni uning foydalanuvchisidan ayro holda tadqiq qilish uning barcha jihatlarini to'la-to'kis ochib berish imkoniyatidan mahrum qiladi. Chunki til noyob va murakkab hodisa bo'lib, uning inson bilan bog'liq jihatlarini yoritibgina til haqida to'liq, mukammal va batafsil xulosalar chiqarish mumkin. Inson amaliy faoliyati, ruhiy holati, ongi va bilish xususiyatlariga bog'liq holda o'rganilganganda tilning antropologik jihatlar bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.бўй.фалс.д-ри (PhD)... дисс. – Фаргона, 2022.
2. Исмоилов Х. Суд лингвистикасининг социоллингвистик ва психоллингвистик аспектлари (жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2021. – Б.17.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.221.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. – 42 б.;
5. Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фан.ном...дисс. автореферат. – Тошкент, 1993. – 24 б.;
6. Саидхонов М. Мимик новербал воситалар. Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Андижон, 2020-йил, 4-май. – Б.238

¹⁰ Худойбергана Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент, 2013. – Б.5-6.